

O'ZBEK VA TURK TILLARIDA OZIQ-OVQAT NOMLARINING QIYOSIY-LINGVOMADANIY TADQIQI

Suyunova Sitora Fazliddin qizi,

O'zbekiston Milliy universiteti Jurnalistika va O'zbek filologiyasi fakulteti

Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi 2-kurs magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18843782>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va turk tillaridagi oziq-ovqat nomlari qiyosiy hamda lingvomadaniy aspektida tahlil qilinadi. Oziq-ovqat leksikasi xalqning tarixiy taraqqiyoti, milliy mentaliteti, xo'jalik faoliyati va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim til qatlamlaridan biri sifatida yoritiladi. Tadqiqotda turkiy tillar leksikasini o'rganishda muhim hissa qo'shgan olimlar: Vasiliy Radlov, Nikolay Baskakov, Aleksandr Kononov hamda o'zbek tilshunosligida A. Hojiyev, E. Begmatov, Sh. Rahmatullayev, N. Mahmudov kabi tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, turk tilshunosligida Z. Korkmaz, M. Ergin, A. Bican Ercilasunlarning ishlari ham ko'rib chiqiladi. Maqolada oziq-ovqat nomlarining etimologik xususiyatlari, semantik taraqqiyoti, frazeologik birliklardagi ifodasi hamda milliy madaniyat bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi. Jumladan, Devonu Lug'otit-Turk asaridagi oziq-ovqat va ichimlik nomlari hamda ularning hozirgi Turkiya turkchasiidagi ko'rinishlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari gastronomik leksikaning nafaqat lingvistik, balki etnografik va madaniy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat nomlari, gastronomik leksika, qiyosiy tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, turkiy tillar, o'zbek tili, turk tili, etimologiya, leksikologiya, frazeologiya, milliy madaniyat, Devonu Lug'otit-Turk.

Annotation. This article analyzes the names of food in the Uzbek and Turkish languages from a comparative and linguocultural perspective. Food-related vocabulary is examined as one of the important layers of language that reflects a people's historical development, national mentality, economic activity and cultural values. The study explores the scholarly views of researchers who made significant contributions to the study of Turkic linguistics Vasiliy Radlov, Nikolay Baskakov, Aleksandr Kononov as well as Uzbek linguists such as A. Hojiyev, E. Begmatov, Sh. Rahmatullayev and N. Mahmudov. Additionally, the works of Turkish linguists Z. Korkmaz, M. Ergin, and A. Bican Ercilasun are also reviewed. The article reveals the etymological features of food names, their semantic development, their expression in phraseological units, and their close connection with national culture. In particular, the food and beverage names found in Devonu Lug'otit-Turk and their forms in modern Turkey Turkish are comparatively analyzed. The research findings demonstrate that gastronomic vocabulary possesses not only linguistic but also ethnographic and cultural significance.

Keywords: food names, gastronomic vocabulary, comparative linguistics, linguoculturology, Turkic languages, Uzbek language, Turkish language, etymology, lexicology, phraseology, national culture, Devonu Lug'otit-Turk.

Аннотация. В данной статье названия пищевых продуктов в узбекском и турецком языках анализируются в сравнительном и лингвокультурологическом аспекте. Лексика, связанная с пищей, рассматривается как один из важных пластов языка, отражающих историческое развитие народа, его национальный менталитет, хозяйственную деятельность и культурные ценности. В исследовании анализируются научные взгляды учёных, внесших значительный вклад в изучение тюркских языков — Василий Радлов, Николай Баскаков, Александр Кононов, а также узбекских лингвистов — А. Хожиев, Э. Бегматов, Ш. Рахматуллаев, Н. Махмудов. Кроме того, рассматриваются труды турецких лингвистов — З. Кормаз, М. Эргин и А. Биджан Эрджиласун. В статье раскрываются этимологические особенности названий пищевых продуктов, их семантическое развитие, функционирование во фразеологических единицах, а также их тесная связь с национальной культурой. В частности, в сопоставительном плане анализируются

названия пищи и напитков, представленные в труде Диван лугат ат-тюрк, и их формы в современном турецком языке Турции. Результаты исследования показывают, что гастрономическая лексика обладает не только лингвистической, но и этнографической и культурной значимостью.

Ключевые слова: названия пищевых продуктов, гастрономическая лексика, сопоставительное языкознание, лингвокультурология, тюркские языки, узбекский язык, турецкий язык, этимология, лексикология, фразеология, национальная культура, Диван лугат ат-тюрк.

Kirish. Hozirgi zamon tilshunosligida qiyosiy va lingvomadaniy tadqiqotlar muhim ilmiy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Til birliklari orqali xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati, milliy mentaliteti va ijtimoiy hayoti aks etadi. Bu jarayonda leksik qatlam, xususan, oziq-ovqat nomlari xalqning kundalik turmush tarzi, xoʻjalik faoliyati hamda madaniy qadriyatlarini ifodalovchi muhim lingvistik manbaa sifatida alohida ahamiyatga ega.

Tilning leksik boyligi ichida oziq-ovqat nomlari alohida oʻrin tutadi. Oziq-ovqat nomlari xalqning xoʻjalik faoliyati, yashash muhiti, tarixiy taraqqiyoti va madaniy anʼanalari bilan uzviy bogʻliq boʻlib, tilning eng qadimiy va barqaror qatlamlaridan biri hisoblanadi. Mazkur leksik birliklar nafaqat lingvistik, balki etnografik va madaniy maʼlumotlarni ham oʻzida mujassamlashtiradi.

Adabiyotlar sharhi. Oʻzbek va turk tillari turkiy tillar oilasiga mansub boʻlib, ularning leksik tarkibida umumturkiy birliklar bilan bir qatorda har bir tilga xos milliy xususiyatlar ham mavjud. Oziq-ovqat nomlari mazkur tillarning tarixiy rivojlanish jarayoni, etnik-madaniy aloqalari va xalqning yashash muhiti bilan uzviy bogʻliq holda shakllangan. Oʻzbek va turk tillarida oziq-ovqat nomlarini oʻrganish masalasi tilshunoslikning leksikologiya, etimologiya, qiyosiy tilshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslik yoʻnalishlari bilan bevosita bogʻliqdir. Mazkur mavzu boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar asosan umumturkiy leksika, milliy madaniyat bilan bogʻliq til birliklari hamda maishiy leksikaning shakllanish jarayonini yoritishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Turkiy tillar leksikasini oʻrganishda V.V.Radlov, N.A.Baskakov, A.N.Kononov kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning tadqiqotlarida turkiy tillardagi umumiy leksik birliklar, jumladan, kundalik hayot bilan bogʻliq soʻzlarning tarixiy taraqqiyoti hamda semantik xususiyatlari yoritilgan. Ushbu ishlarda oziq-ovqat nomlari alohida tizim sifatida emas, balki umumiy leksik qatlam doirasida tahlil qilingan.

Natijalar. Oʻzbek tilshunosligida oziq-ovqat nomlari leksikologik va etnolingvistik tadqiqotlar doirasida oʻrganilgan. Xususan, A.Hojiyev, E.Begmatov, Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov kabi olimlarning asarlarida oʻzbek tilining lugʻaviy boyligi, soʻzlarning etimologiyasi va semantik taraqqiyoti masalalari yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida milliy taom nomlari xalq madaniyati, urf-odatlar va tarixiy tajribasi bilan bogʻliq holda izohlanadi.

Shuningdek, oʻzbek tilidagi izohli, etimologik va dialektologik lugʻatlarda oziq-ovqat nomlariga oid qimmatli maʼlumotlar uchraydi. Jumladan, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”

hamda Sh. Rahmatullayevning etimologik izlanishlari oziq-ovqat nomlarining kelib chiqishi va semantik xususiyatlarini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Turk tilshunosligida esa oziq-ovqat nomlari ko'proq lingvomadaniy hamda etnografik aspektda o'rganilgan. Z. Korkmaz, M. Ergin, A. Bican Ercilasun kabi olimlarning tadqiqotlarida turk tilining leksik tarkibi, milliy madaniyat bilan bog'liq til birliklari va ularning tarixiy rivoji tahlil qilingan. Turk tilidagi izohli va etimologik lug'atlarda ham milliy taom nomlari, ularning kelib chiqishi va madaniy mazmuni haqida ma'lumotlar berilgan.

Gastronomik birliklarning ikkala xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etishini xalq madaniyatida qo'llaniladigan frazeologik birliklarda ham ko'rishimiz mumkin. "Nonni katta tishla, gapni katta gapirma." (Ortiqcha maqtanma, haddan oshma; kamtar bo'l). "Oshing halol bo'lsa, ko'ngling xotirjam bo'lur." (Halol mehnat bilan topilgan rizq insonni xotirjam qiladi). "Bir kun tuz totgan joyga qirq kun salom ber." (Yaxshilik ko'rgan joyni unutma, minnatdor bo'l). "Och qoringa aql sig'mas." (Och odam sog'lom fikr yurita olmaydi). "Qozon qaynasa, g'am qochadi." (Uyda rizq-ro'z bo'lsa, tashvish kamayadi). "Non –rizq-ro'zning boshi." (Non hayotning asosi, eng muhim ne'mat hisoblanadi).

"Ne ekersen onu biçersin. Qanday ish qilsang, shunday natija olasan." ("Ek-" – ekin ekish, oziq bilan bog'liq tushuncha.) "Pilavdan dönenin kaşığı kırılınsın." Boshlangan ishni tashlab ketma; qat'iyatli bo'l. ("Pilav" – guruchli taom.), "Ekmek aslanın ağzında.": Rizq topish qiyin, mehnat talab qiladi. "Tatlı dil yılanı deliğinden çıkarır." Yaxshi, shirin muomala har qanday qiyin vaziyatni hal qiladi. ("Tatlı" – shirin so'zi oziq-ovqat mazmunida qo'llangan.) Ush

Engin Çetinning "Divanü lügati't-türk'teki yiyecek içecek adlari ve bu adların türkiye türkçesindeki görünüşleri" nomli tadqiqotida, madaniyat unsurlarining davomiyligi belgisi sifatida, XI asr turkchasining so'z boyligini katta darajada aks ettirgan Devonu Lug'otit-Turkdagi ovqat va ichimlik nomlari bilan ularning hozirgi Turkiya turkchasining adabiy tili va lahjalaridagi holati tahlil qilingan.

Xulosa. O'zbek va turk tillaridagi oziq-ovqat nomlari har ikki xalqning tarixiy-madaniy taraqqiyoti, yashash muhiti va milliy mentaliteti bilan chambarchas bog'liqdir. Ularni qiyosiy-lingvomadaniy jihatdan o'rganish turkiy tillar leksikasining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Gastronomik leksika tilning qadimiy qatlamlaridan biri sifatida nafaqat lingvistik, balki etnografik va madaniy ahamiyatga ham egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. Toshkent: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
2. B.Yo'ldoshev. "O'zbek tili onomastikasi masalalari" fanidan uslubiy qo'llanma. Samarqand-2011
3. Ikramova N. Uzbekskaaya kulinariya leksika: Dis...kand.filol.nauk. Toshkent- 1983 168s.
4. Nurova Y "O'zbek xalq paremalarining etnolingvistik xususiyatlari(kiyim va oziq-ovqat nomlari asosida)" dis. Buxoro-2023 86-116b

5. Xudayorova M O'zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili. Filol.fn.dis...aftoreferat.Toshkent-2008
6. Курбонова М. Бухоро воҳаси ўзбек ва тожикларининг анъанавий таомлари: Тарих фанлари номзоди ... дис. – Тошкент, 1994. – 158 б.

